

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzarb  
muammolari**

Jild 3, Son 10

**2023**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*№ 10 (3)-2023*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2023**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### *07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

### *08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### *09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### *10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

### *12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:*

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

### *13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:*

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шохида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

### *19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Каримова Васида Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

### *22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодида Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

### *23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

---

## **ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

---

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.  
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
масъулияти чекланган жамият.

## **Тахририят манзили:**

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: [scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

Телеграм канал:

[https://t.me/scienceproblems\\_uz](https://t.me/scienceproblems_uz)

## МУНДАРИЖА

### 07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

- Фарманова Гулнара Комилевна*  
МЕТОДЫ АРХЕОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ НА ТЕРРИТОРИИ САМАРКАНДСКОГО  
СОГДА В КОНЦЕ XIX – НАЧАЛЕ XX ВЕКА ..... 9-18
- Саидбобоева Гулзора Нематжоновна*  
ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ АРХИВИ ҲУЖЖАТЛАРИДА ГИДРОЭЛЕКТР СТАНЦИЯЛАРИНИНГ  
ҚУРИЛИШИГА ДОИР МАЪЛУМОТЛАР (XX АСР 20-ЙИЛЛАРИ ОХИРИ-30-ЙИЛЛАР  
БОШИ) ..... 19-26
- Ахмедов Шахзод Фарход ўғли*  
МУСТАҚИЛЛИККА ЭРИШИШ АРАФАСИДА ЎЗБЕКИСТОНДА ЧОРВАЧИЛИКНИНГ  
УМУМИЙ ҲОЛАТИ ВА МАВЖУД МУАММОЛАРИ ..... 27-34
- Mirsoatova Sayyora Turg'unovna*  
MARKAZIY FARG'ONA NEOLIT JAMOALARI MADANIYATI HAQIDA MULOHAZALAR ..... 35-39
- Янгибоева Дилноза Ўктамовна*  
МУҲАММАД ШАРИФЖОН МАХДУМ САДРИ ЗИЁНИНГ ИЖТИМОИЙ-СИЁСИЙ  
ФАОЛИЯТИ ..... 40-48
- Маҳмудов Эркинжон Асқаралиевич*  
АРАБЛАР ТОМОНДАН ФАРФОНАНИНГ ЗАБТ ЭТИЛИШИ ҲАҚИДАГИ МАЪЛУМОТЛАР ВА  
УЛАРИНИНГ ТАҲЛИЛИ ..... 49-53
- Yoriqulov Nasibulla Xoliyorovich*  
O'ZBEKISTON HUDUDIGA G'ARB ME'MORCHILIK AN'ANALARINING KIRIB KELISHI ..... 54-58
- Ergasheva Bahridil G'olibjonovna*  
IJTIMOIY TARMOQLARDAGI REKLAMALARNING IJTIMOIY-MA'NAVIY HAYOTGA TA'SIRIGA  
DOIR MULOHAZALAR (ETNOSOTSILOGIK TAHLIL) ..... 59-65
- Абдухамидов Исломбек Абдухалим ўғли*  
МЕҲНАТ МИГРАЦИЯСИНИ ЎРГАНИШДА ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ЁНДАШУВЛАР ..... 66-74
- Boltayeva Moxichehra Jamshid qizi*  
XORIJIIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH BO'YICHA AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR VA  
ERISHILGAN KO'RSATKICHLAR (JIZZAX VILOYATI MISOLIDA) ..... 75-80
- Кандахаров Анваржон Хасанович, Бабаярова Шахноза Шухратовна*  
БУХОРО ХОНЛИГИДА АБДУЛЛАХОН II ДАВРИНИНГ ҚУРИЛИШ ИНШООТЛАРИ  
ТАРИХИГА БИР НАЗАР ..... 81-86

### 8.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

- Boltayev Nurali Shiramatovich*  
AGRAR OLIIY TA'LIM MUASSASALARIDA MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING  
BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI ..... 87-93

<i>Дустова Мухайё Худайбердиевна</i> РОСТ, УСТОЙЧИВОСТЬ, ДОХОДНОСТЬ: ЭКОНОМЕТРИКА ФИНАНСОВЫХ ПОТОКОВ НА СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ .....	94-102
<i>Ravshanov Malik Naimovich</i> METHODOLOGY FOR DETERMINING THE NEED FOR ECONOMIC RESOURCES OF THE ROAD TRANSPORT COMPLEX.....	103-108
<i>Xushmuradov Oman Namozovich</i> TIJORAT BANKLARI MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH ISTIQBOLLARI .....	109-115
<i>Raximjonov Kamronbek Ixomjon o'g'li</i> DAVLAT XARIDLARINI AMALGA OSHIRISHDA KORRUPSIYANI OLDINI OLISH .....	116-121
<b>09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ</b>	
<i>Наврўзова Гулчеҳра Нигматовна</i> АКАДЕМИК ИБРОҶИМ МЎМИНОВ ИЛМИЙ ЖАСОРАТИНИНГ ЯНГИ ҚИРРАСИ .....	122-128
<i>Talabov Baxriddin Alijanovich</i> KONSTITUTIONIZM DEMOKRATIK RIVOJLANISHNING ASOSI SIFATIDA .....	129-134
<i>Tajibaev Muxiddin Abdurashidovich</i> JAMIYAT HAYOTIDA SINERGETIK DUNYOQARASH PARADIGMASINI TADQIQ QILISHNING AHAMIYATI .....	135-140
<i>Солиев Икромжон Комилжонович</i> РАҚАМЛИ ДУНЁДА ИНСОН ҚАДРИ МУАММОСИ: ИЛМИЙ-ФАЛСАФИЙ ТАЛҚИН ....	141-147
<i>То'хтайев Хаким Primovich</i> TASAVVUF TA'LIMOTLARIDA QADRIYATLAR TRANSFORMATSIYASINING NAMOYON VO'LISH XUSUSIYATLARI .....	148-153
<i>Уразалиева Гулшада</i> СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ КАТЕГОРИИ «ГЕНДЕР» В СИСТЕМЕ ОБЩЕСТВЕННЫХ ОТНОШЕНИЙ .....	154-160
<i>Гуламова Мавжуда Ташпулатовна</i> ИЖТИМОЙ АХЛОҚ МЕЗОНЛАРИНИ ЎРГАНИШДА КУМУШХОНАВИЙ ВАСИЯТНОМАЛАРИНИНГ ЎРНИ .....	161-165
<i>Xoliqov Lazizjon Maxmud o'g'li</i> GLOBAL O'ZGARISHLAR SHAROITIDA O'ZBEKISTONNING IJTIMOYIY-DUNYOVIY DAVLAT SIFATIDAGI MAQOMI (IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLIL) .....	166-171
<i>Quvonov Sardor Zokirovich</i> MA'NAVIY TARBIYANI SHAKLLANTIRISHDA "MANOQIBI SHAYX XUDOYDOD VALIY" ASARINING AHAMIYATI .....	172-179
<b>10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ</b>	

<i>Халметова Меҳрибону Гайратжонова</i> ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ДЕТСКОЙ ЛЕКСИКИ В НЕМЕЦКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ .....	180-186
<i>Abdijabbor Amanov</i> MURAKKAB SINTAKTIK BUTUNLIKNING MATNNING KATTA BIRLIGI SIFATIDA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	187-194
<i>Umarova Xurshida Zikiryoхonovna</i> AQSH ADABIYOTIDA PSIXOLOGIK ROMAN TADRIJI .....	195-203
<i>Odinayev Bekqul Imamqulovich</i> LISONIY SHAXS: TA'RIF, TAHLIL, TALQIN .....	204-210
<i>Jaloliddin Jo'rayev, Jamoliddin Jo'rayev</i> "DEVONI LUG'ATIT-TURK" VA "GULSHAN UL-ASROR"DAGI QADIMGI TURKIY SO'ZLAR QIYOSI .....	211-217
<i>Saidov Akmal Azimovich</i> "TARJIMA NAZARIYASI VA AMALIYOTI" YO'NALISHIDA TAHSIL OLAYOTGAN TALABALARDA MADANIYATLARARO MULOQOT KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH .....	218-224
<b>12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР</b>	
<i>Qosimov Botirjon Ma'ruffjon o'g'li</i> SUDYALAR OLIY KENGASHINI SUDYALARNING CHINAKAM HAMJAMIYATI ORGANIGA AYLANTIRISHNING KONSTITUTSIYAVIY MASALALARI .....	225-231
<i>Жўраев Дилмурот Мухторович</i> МАЪМУРИЙ ВА ОММАВИЙ ҲУҚУҚИЙ МУНОСАБАТЛАРДАН КЕЛИБ ЧИҚАДИГАН НИЗОЛАРНИ СУДДА ҲАЛ ЭТИШДА КЕЛИШУВ ТАРТИБ-ТАОМИЛЛАРИНИ ҚЎЛЛАШГА ТАЪСИР ҚИЛУВЧИ АЙРИМ МАСАЛАЛАР .....	232-240
<i>Эшонхонов Камолхон Маматхонович</i> БАНД СОЛИНГАН МУЛКНИ ҚОНУНГА ХИЛОФ РАВИШДА ТАСАРРУФ ЭТИШ ЖИНОЯТИНИ КВАЛИФИКАЦИЯ ҚИЛИШДАГИ АЙРИМ МАСАЛАЛАР.....	241-246
<i>Бўриев Одил Қобилович</i> КОРРУПЦИЯГА ҚАРШИ КУРАШ – ИНСОН ҚАДРИНИ ЮКСАЛТИРИШ МЕЗОНИДИР .....	247-253
<b>13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ</b>	
<i>Umarzoda Shohruh Azamat o'g'li</i> "ALGORITMIK TILLAR VA DASTURLASH ASOSLARI" FANI MAZMUNI VA O'QITISHNING MAVJUD HOLATI .....	254-259
<i>Эргашева Гули Исмоил кизи, Инамова Гуллола</i> ЗНАЧИМОСТЬ ФОРМИРОВАНИЯ ФОНЕТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ В ПРОЦЕССЕ КОММУНИКАЦИИ.....	260-265

<i>Bobomurotov Sirojiddin Mengziyo o'g'li</i> BOSHLANG'ICH SINFLARDA TABIIY FANLARNI VARIANTIV TUSHUNCHALAR ASOSIDA O'QITISHDA SHARQ MUTAFAKKIRLARINING O'RNI .....	266-271
<i>Xudoyberdiyev G'iyosiddin Baxtiyor o'g'li</i> BOSHLANG'ICH SINFLARDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK JIHATLARI .....	272-277
<i>Ботиров Азизбек</i> РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В НЕГОСУДАРСТВЕННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ: АНАЛИЗ И ПЕРСПЕКТИВЫ .....	278-283
<i>Эшбеков Сардор Журакулович</i> ЁШЛАРНИ ҲАРБИЙ ВАТАНПАРВАРЛИК РУҲИДА ТАРБИЯЛАШ ТИЗИМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШИНИГ МУҲИМ ОМИЛИ .....	284-288
<i>Abdullaeva Feruza Suyunovna</i> KASBIY TERMINOLOGIYANI O'RGATISHDA INTERAKTIV TEXNOLOGIYALARNING O'RNI .....	289-293
<i>Ortiqov Oybek Rustamovich</i> OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLARNING TASHKIL ETILISHI.....	294-298
<i>Erhanova Nasiba Absayitovna</i> MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARINING "TIL VA NUTQ" MARKAZIDA INNOVATSION FAOLIYAT OLIB BORISH .....	299-303
<i>Robiya Mannopova</i> INNOVATIVE COMPETENCY AS A CORE COMPETENCE OF FOREIGN LANGUAGE TEACHERS.....	304-308
<i>Qodirov Olim Odilovich</i> REFLEKSIV YONDASHUV, UNING MOHIYATI VA KONSEPTUAL ASOSLARI.....	309-314
<i>Xaydarova Mahliyo Xabibullayevna</i> TARBIYA FANINI O'QITISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....	315-322
<i>Xasanova Gulsanam Xusanovna</i> IJTIMOIY-MADANIY FAOLIYATDA MAGISTRATURA TALABALARINING TASHKILIY- BOSHQARUV KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH USULLARI .....	323-328



*07.00.00 – Тарих фанлари*

**Yoriqulov Nasibulla Xoliyorovich,**  
Qarshi davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

### **O'ZBEKISTON HUDUDIGA G'ARB ME'MORCHILIK AN'ANALARINING KIRIB KELISHI**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Buxoro amirligi shaharlarining XIX asr oxiri - XX asr boshlaridagi me'morchilik tarixi yoritilgan bo'lib, bunda Rossiya imperiyasi tomonidan O'rta Osiyoni bosib olinishi oqibatida yevropa qurilish uslublarining kirib kelishi hamda ularning mahalliy me'morchilik an'analari ta'siri yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Arxitektura, Saroy, Madrasa, Masjid, Xonaqoh, Eksplanada, Pud, Kazarma, Borokko, Ampir.

**Yoriqulov Nasibulla Xoliyorovich,**  
Independent researcher of Karshi State University

### **THE ENTRANCE OF WESTERN ARCHITECTURAL TRADITIONS TO UZBEKISTAN**

**Abstract.** This article covers the architectural history of the cities of the Bukhara Emirate in the late 19th and early 20th centuries, including the introduction of European construction styles as a result of the conquest of Central Asia by the Russian Empire and their influence on local architectural traditions. the secret is revealed.

**Keywords:** Architecture, Palace, Madrasah, Mosque, Khanaqah, Explanade, Pud, Barracks, Baroque, Empire.

**Ёрикулов Насибулла Холиёрович,**  
Независимый исследователь Каршинского  
государственного университета

### **ВХОЖДЕНИЕ ЗАПАДНЫХ АРХИТЕКТУРНЫХ ТРАДИЦИЙ В УЗБЕКИСТАН**

**Аннотация.** В данной статье рассматривается архитектурная история городов Бухарского эмирата конца 19 - начала 20 веков, в том числе внедрение европейских стилей строительства в результате завоевания Российской империей Средней Азии и их влияние на местную архитектуру. традиции. тайна раскрыта.

**Ключевые слова:** Архитектура, Дворец, Медресе, Мечеть, Ханака, Экспланада, Пуд, Казармы, Барокко, Империя.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SP1342V3I10Y2023N07>

Me'morchilik ustalari inson hayoti va faoliyati uchun zarur fazoviy muhitni tafakkur kuchi bilan avval ijodiy loyihada rejalab, keyin esa uni amalda yuksak did va mahorat bilan bunyod etadilar. Me'morchilik – arxitektura foydalanishdagi maqsad va vazifalar, zamonaviy texnik imkoniyatlar va jamiyatning estetik qarashlaridan kelib chiqib bino va inshootlarni loyihalash va qurish san'atidir[5]. Me'morchilik asarlari qatoriga turli-tuman binolar, uy-joylar, me'moriy majmualar, maydonlar, shaharlar, ulardagi monumentlar, usti ochiq va yopiq

inshootlar kiradi. Me'morchilik asarlarining amaliy xizmati, vazifasidan tashqari ma'lum g'oyaviy-badiiy mazmuni, o'z davrini ifodalovchi me'moriy qiyofa – obrazni mujassam etadi, moddiy madaniyatning eng mahobatli va eng ko'p xarajatli, tarkibiy qismini tashkil etadi; ayni vaqtda mahobatli san'at sifatida namoyon bo'ladi.

Vatanimiz hududida XIX asrda Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklari kabi uch mustaqil davlat mavjud bo'lib, bu davlatlarda ishlab chiqarish, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, savdo-sotiq va boshqa sohalar bilan bir qatorda, qurilish, me'morchilik sohalari ham o'ziga xos siyosiy davr nuqtai nazaridan rivojlandi. Lekin, ushbu holat G'arb davlatlariga nisbatan olib qaralganda ancha orqada edi.

O'rta Osiyoda XIX asrning ikkinchi yarmida rus qo'shinlarining kirib kelishi o'lka shaharsozligi va me'morchiligiga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Uning oqibatlari kelgusidagi o'lka taraqqiyotida og'ir asoratlar qoldirdi. Zero, Muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Buyuk tarixda hech narsa izsiz ketmaydi. U xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham u qudratlidir. Tarixiy merosni asrab-avaylash, o'rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir"[7].

Ruslar Toshkent, Samarqand, Jizzax, Qo'qon, Andijon, Namangan shaharlarida eski shaharlarga teskari qilib, yangi hududda o'z shaharlarini qura boshladilar. Rus muhandislari O'zbekistonda qurgan o'z shaharlarining asosi sifatida Sankt-Peterburg, Vashington va boshqa shaharlar loyihasi uchun asos qilib olingan uch nurli kompozitsiyadan foydalanishdi. Unga binoan eski shaharning arki hisoblangan hudud yoki unga tutash joyda o'z qal'alarini va undan o'tkir burchak ostida uch nur ostida taralib turadigan uch ko'chani chiqardilar. Bu uch ko'chaga ko'ndalang qilib boshqa ko'chalarni birlashtirdilar. Shu yo'sinda radial-halqali kompozitsiyaning asosi yaratildi[2].

Rus kapitalining kirib kelishi natijasida turar joy binolari, savdo inshootlari, yangi ko'rinishdagi maktablar, cherkovlar bilan bir qatorda fabrika, zavod va bank binolari ham qurila boshlandi. Inshootlarning qurilishida rus an'anaviy me'morchilik shakllari bilan bir qatorda Yevropada taraqqiy etgan gotika, Uyg'onish davrining barokko va klassitsizm singari uslub va belgilari kirib keldi[3].

O'lkamizga kirib kelgan Yevropa me'morchilik uslublariga, mahalliy me'morchilik an'analari, qurilish materiallari, amaliy san'at namunalari ta'sir ko'rsatib, o'ziga xos yangiliklar va uslublar yuzaga keldi. O'z navbatida O'rta Osiyo me'morchiligiga Yevropa muhandislik yutuqlari ham ma'lum darajada ta'sir ko'rsatdi. Jumladan, sanoat asosida ishlab chiqarilgan uzunchoq pishiq g'ishtlar, metall konstruksiyalar, qurilish materiallari, pechka singari yangi isitish sistemasi, cherdakli tomlar va boshqalar shular jumlasiga kiradi[3].

O'rta Osiyoga keltirilgan yevropacha turarjoy binolari nusxasi yaxlit cherdakli to'rtburchak tom ostiga joylashgan xonalar majmuasidan iborat edi. Undagi xonalarning bir nechtasiga bitta yo'lakdan kirilishi, tomning qulayligi, isitish sistemasi, derazalarning har tomonga chiqishi bu turdagi binolarning tez orada keng tarqalishiga sabab bo'ldi. Taxminan bir asrlik vaqt ichida ming yilliklar davomida O'rta Osiyoda yuzaga kelgan, atrofi o'rab olingan hovlili uyning asosiy elementi qilib olingan imoratlar o'rniga o'ta noqulay tur – hovlining bir burchagigagina joylashtirilgan imoratlar qurish an'anaga aylanib qoldi.

Chor Rossiyasi tomonidan Toshkent shahri bosib olinganidan keyin shaharning "yangi" qismida g'arb me'morchiligi asosida ko'plab binolar qurildi. O'sha davrdagi Davlat banki,

ayollar gimnaziyasi, Toshkent erkaklar gimnaziyasi, Kadet korpusi, Knyaz Nikolay Konstantinovich saroyi, Real bilim yurti, Kaplan dorixonasi, Toshkent shimoliy vokzali, Turkiston davlat palatasi va boshqa binolarni misol qilib keltirish mumkin. Bundan tashqari, 1880 yil ma'lumotlariga ko'ra 11 ta cherkov, 3 ta sinogoga hamda 17 ta masjid bo'lgan[6].

O'rta Osiyoga g'arb me'morchilik uslublarining kirib kelishiga yana bir misol Qo'qon shahrida joylashgan O'rda – Xudoyorxon saroyi hisoblanadi. O'rda XIX asrning ikkinchi yarmida tepalik ustida qurilgan bo'lib, to'rt gektarga yaqin burchakli maydonni egallaydi va ko'p hovlili kompozitsiyani tashkil etadi. Darvoza peshtoqiga arab imlosida yirik harflar bilan "Arki oliy Said Muhammad Xudoyorxon" so'zlari bitilgan. 1876 yili kapitan N.N.Vorotsov hamda keyinroq topogaf A.I.Borisovskiy chizgan Qo'qon O'rdasining bosh planida saroy oldida zanjirband darvozalar qurilgan alohida maydon borligi, uni bog'lar va harbiy aslahaxonalar qurshab turganligi ko'rinadi. Butun maydon baland devor bilan o'ralgan. 100 ga yaqin xonalardan tashkil topgan saroyning murakkab tarxi to'g'ri burchakka (65x138 m) mos tushgan. Saroyning birinchi yarmi – tashqi qismi gir atrofi ayvondan iborat hovli bo'lib, unda qabul uchun ko'rkam zal (ko'rinishxona), xazina (zarrinxona) hamda alohida masjid joylashgan. Markaziy qismida esa qabulxona uchun kichik zal (salomxona), xon yashaydigan binolar turkumi (shahnishin) hamda omborxonalari bo'lgan xo'jalik binolari qurilgan[1].

Saroyning ikkinchi qismini hovli sahnalari bilan o'zaro bog'lanib ketgan haram egallagan. 1878 yil Qo'qon shahrida bo'lgan Mari Burdonning "Parijdan Samarqandgacha" kitobiga ishlangan rasmlarga qaraganda, haram xonalari ichki-tashqi bo'lib, ularga yuqori qismida joylashgan yozgi uzun ayvonchaga o'xshash o'tish joylari bo'lgan yo'lkalar orqali kirilgan[1].

Saroy shu yerlik ustalar mulla Suyarqul, usta Solixo'ja va buxorolik usta Fozilxo'ja hamda me'mor Mir Ubaydulla rahbarligida qurilgan. Asosiy qurilish materiali pishiq g'isht bo'lgan.

Binoning tashqi va ichki ko'rinishlarini me'moriy jihatdan bezashda Xudoyorxonning tejamkorligi va ziqnaligi aks etgan. Bosh fasad, darvozaxona va tantana zallari g'oyat zeb berib ishlangan, lekin qolgan binolarning pardozi ishlari odmi holda qoldirilgan. Sharqiy fasad o'rtasida kirish tomonning ulug'vorligini ko'rsatish maqsadida dekorativ mezanali peshtoq qad ko'targan. Ichkariga qarab ochiladigan o'ymakor darvoza usta Qodirjon Haydarov tomonidan ta'mir etilgan. Fasadning yon tomonlari bezash maqsadida uncha chuqur bo'lmagan to'g'ri burchakli mehrobli tokchalar bilan bo'lingan. Mehrobli ravoqlar soni, rangli koshinlar naqshi va chetki g'ulasimon minoralar (janubiy sharqdagi minora olti qirrali, qolganlari esa aylana shaklda) bir qarashda ko'zga tashlanadigan mutanosiblikka putur yetkazadi. Devorlarga qator kungiralar ishlangan. Bino tashqarisida g'ishtlar suvoqsiz qoldirilgan, pardozdin holi.

G'arb me'morchiligining ta'sirini Xivada ham ko'rish mumkin. 1913 yilda Xiva xoni Asfandiyor (1910-1920) talabi bilan usta Qurbonniyoz boshchiligida ikki qavatli qorixona binosi qad ko'tardi. G'ishtlarning yirikligi, devor choklarining tekislanishi, yarim doira shaklidagi ravoqlar bino arxitekturasiga Yevropa me'morchilik ta'siri bo'lganligini ko'rsatadi. Binoning shimoliy qismida ikki tomondan yorug' tushadigan katta xona Asfandiyorxon avlodlari dahmasiga mo'ljallangan edi. Ma'lumki xonning onasi Qutlug'beka xonim katta dahma ostiga ko'milgan. Hovlining janubiy-g'arbiy qismida o'ymakor ustunli ayvon qurilishi bilan ko'rkam arxitektura kompleksi tugallanadi.

Shuningdek, g'arb me'morchiligi Xivaning eng baland minorasi Islomxo'ja minorasi (balandligi 44,6 m, asosining diametri 9,5 m) da ham uchraydi. Minoraning oddiy va aniq formasida, bezaklarida Xiva arxitekturasiga kirib kirib kelayotgan yangi uslub inshootlarini

ko'rish mumkin. O'sha davrdagi Xiva me'morchiligiga xos xususiyatlar qurilgan yangi tipdagi binolar – pochta, telegraf, maktab va kasalxona tuzilishida o'z ifodasini topgan. Ustalar qadimiy konstruksiya va bezak usullari bilan bir qatorda ruscha g'isht terish, yangicha shakldagi ravoq va tomlarni qo'llaganlar[4].

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Xivadagi g'arb me'morchiligining ta'siri Nurillaboy saroyida uchraydi. Inshoot Xiva xoni Muhammad Rahimxon II tomonidan savdogar Nurillaboy bog'i o'rnida bunyod etilgan va yozgi saroy vazifani bajargan. Saroy Ichan-Qal'aning shamoliy-g'arbiy qismida joylashgan. Saroy baland devor bilan o'ralgan va to'rt hovlidan iborat. Darvoza ichida soqchilar va devonxonaning maxsus xonalari joylashgan. Saroyning hozirgi holati Asfandiyorxon davriga to'g'ri keladi. Asfandiyorxon talabi bilan saroy qayta tiklangan, xususan, arboblarni qabul qilish uchun marosim zali bilan alohida bino qurilgan. Qabulxona qurilishi uchun Xiva bosh vaziri Moskvaga yetakchi me'morlar bilan maslahatlashish uchun borgan. Keyinchalik mashhur rus muhandisi A.M.Root boshchiligidagi me'morlar Xiva shahar pochta, shifoxona va albatta saroyning qabulxonasini qurish uchun kelishgan[8].

Qabulxona uchun maxsus ishlangan g'ishtlar maxsus tayyorlangan. Xiva xonligining eng yaxshi ustalari g'isht qo'yish bilan shug'ullangan. Tom qismini esa yupqa temir bilan qoplaganlar. Saroyning zallarida parket yotqizilgan, ularni yopish uchun, shuningdek, deraza va eshiklarni o'rnatish uchun Xivada yashovchi menonit-nemislari taklif qilingan. Devorlari yog'li bo'yoqlar va o'yilgan naqshlar bilan qoplangan. Shiftlar gullar va farishtalar bilan bezatilgan, ularni bezash uchun rus rassomlari taklif qilingan. Shiftni Xivalik ustalar mohirona geometrik shaklli bezaklar bilan bezatganlar, ustiga yupqa oltin qatlami surtilgan. Yettinchi xona alohida e'tiborga loyiq, uning shiftini qimmatbaho toshlar va tovus tuklari bezatilgan, yetti xonaning barchasida Rossiyadan qismlarga bo'linmagan holda yetkazib berilgan chinni kaminli pechlar, shuningdek, Xiva uchun yangilik bo'lgan hashamatli elektr qandillar o'rnatildi. Kichkina dvigatel bir vaqtning o'zida chiroqlarni yoqish uchun o'rnatilgan. Bir muncha vaqt saroyda muzey va ta'lim uyi ishlangan bo'lsa, bugun qarorgoh ta'mirlanib, asl qiyofasiga qaytarilgan. Endi bu 9 ta katta kichik xonadan, ziyofat xonasidan, arxivdan, madrasadan, xizmatkorlar va soqchilar xonasidan, bog' va gulzorlardan iborat saroy majmuasidir. Nurillaboy saroyi Xorazm milliy uy-joy qurilishining an'anaviy xususiyatlarini o'zida mujassam etgan.

**Xulosa qilib aytganda,** O'rta Osiyo mahalliy me'morchilik an'alariga Yevropa me'moriy uslublari, qurilish materiallarining kirib kelishi amaliy san'at namunalarimizga ta'sir ko'rsatib, o'ziga xos yangiliklarni yuzaga keltirdi. Shuning bilan birgalikda Yevropa muhandislik yutuqlari O'rta Osiyo me'morchiligiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatdi.

#### Адабиётлар / Литература / References:

1. Азимов И. Фарғона водийсининг архитектура ёдгорликлари. Т.: Ўзбекистон. 1986 й. 21-22 бетлар.
2. Ахмедов М.Қ, Назарова Д.А, Ҳасанов О.А. Ўзбекистон архитектураси ва шаҳарсозлигининг тараққиёт йўллари. Т. “Фан ва технология” нашриёти 2016 й, 15 бет.
3. Ахмедов М.Қ Ўрта Осиё меъморчилиги тарихи. Т.:Ўзбекистон. 1995 йил, 133-бет.
4. Булотова В.А, Ноткин И И. Хиванинг архитектура ёдгорликлари. -Т., 1963 й. 53 - бет.
5. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Давлат илмий нашриёти. 2003 йил, 5-том, 625-бет.
6. Ўз МА. 269-Ф. 1-рўйхат. 83-иш

7. Ш.М.Мирзиёев. Ислом Ҳамкорлик Ташкилоти Ташқи ишлар вазирлар кенгаши 43-сессиясининг очилиши. Самарқанд, 2018 йил 25 июль.
8. [WWW.uzbekistan.travel/uz](http://WWW.uzbekistan.travel/uz)

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 10 (3) – 2023*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари**” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).